

## YANGI KONSTITUTSIYA - TARAQQIYOT QOMUSI

---

*Dilyora Shoimova Rahmiddin qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*70112201-Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari  
nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

[\*dilyora.shoimova.93@mail.ru\*](mailto:dilyora.shoimova.93@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tarixida ilk bor 2023 – yil 30 – aprel kuni referendum orqali Yangi Konstitutsiyamiz, qomusimiz xalq istaklari va ixtiyori bilan qabul qilinganligi. Shu nuqtai nazardan qaraganda yangilangan konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz ekanligi. Konstitutsiyamizda bosh omil inson qadr qimmatini, uning huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, qomus, taraqqiyot, prinsip, konsepsiya, jamiyat, islohot, huquq, negiz.

O'zbek xalqi va millatining abadiy borligini va O'zbekiston Respublikasining tayanchi, tamali, yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati Konstitutsiyamiz mana 31 yildirki davlatimizni davlat, millatimizni millat qilib kelayotgan muhim siyosiy hujjatdir. Hurmatli O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek „Har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi, zotan Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasini davlat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir.

Har qanday siyosat, demokratik islohotlar samarasi jamiyatda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini taminlash bilan bevosita bog'liq. Mustaqillik yillari milliy taraqqiyot yo'lida erishilgan yutuqlarga nazar solsak, buning fundamental asosi va huquqiy negizini asosiy qomusimiz tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzulishi hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlarini belgilab berilganligi bilan ham yanada ahamiyatlidir.

„Biz uch ming yillik davlatchilik tarixiga boy va betakror madaniyatga ega bunyodkor xalqimiz. Qirq millionga yaqinlashib yaqinlashib borayotgan aholimizning taqdiri istiqboli, farovon hayoti uchun mas'ul va javobgarmiz“ deya tunu kun tinim bilmay xalqimiz uchun, yurtimiz tinchligi, farovonligi uchun harakat qilayotgan davlatimiz rahbari xalq bilan muloqot qilib, fikrini bildilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tarixida ilk bor 2023 – yil 30 – aprel kuni referendum orqali Yangi Konstitutsiyamiz, qomusimiz xalq istaklari

va ixtiyori bilan qabul qilindi . Shu nuqtai nazardan qaraganda yangilangan konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi desak mubolag'a bo'lmas . „Eng muhimi endi islohotlarimiz yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz inson – jamiyat – davlat degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga, maqsadimiz sari boramiz” deya shijoat bilan so‘zladilar davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev . Bu so‘zlar zaminida yoshlarga bo‘lgan, xalqimizga bo‘lgan ishonch va motivatsiyani ko‘rishimiz mumkin .

Yangilangan Konstitutsiyamizda qabul qilingan qonunlarda birinchi o‘rinda inson qadrligi bo‘lgan xalqparvar davlat barpo etish , inson huquqlarining himoyasi va ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish belgilangan, unada yoshlarga, ta’limga, ijtimoiy soxalarda, inson huquqlari kafolatlariga oid normalar 3 barobar ko‘paytirildi . Bu raqamlar oz tuyulishi mumkin ammo uning zamirida barcha soxalarda qonun ustuvorligi, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘lishiligi, ijtimoiy soxalardagi o‘zgarishlar raqamlar bilan aytganda yangi bog‘cha, maktab va shifoxonalar uchun har yili 30- 40 trillion so‘m ajratilishi amalda bajarilayotganini ko‘rish mumkin .

Yangilangan Konstitutsiyamizda xalqning farovonligi, inson qadr qimmatini oliy o‘rinda ekanligini hozirda dunyoning notinch jabhalarida, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni asrash , mustahkamlash ustuvor vazifa ekanligini „Xavfsiz shahar”, „Xavfsiz mahalla” , „Xavfsiz ko‘cha” konsepsiyalarida amalga oshirilayotgan ishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zotan tinchlik eng buyuk nematimizdir .

Yangilangan Konstitutsiyamizda yoshlar huquqlariga oid muhim konsepsiyalar amalga oshirilmogda. Davlatimiz tomonidan yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishlari uchun imkoniyatlar, shart sharoitlar yaratib berildi. Ularning risoladagidek ta’lim olishlari , sog‘lig‘ini saqlashga, uy – joy, ishga joylashishi davlat tomonidan taminlanib kelinmogda, misol uchun birgina xotin qizlar huquqlari, o‘qituvchi va ishchi xodimlar huquqlari kafolatlanganligi bugungi kunda o‘z samarasini ko‘rsatmogda har jabhada xotin qizlarimizni ko‘rishimiz mumkin.

Yangilangan Konstitutsiyamiz „Xalq Konstitutsiyasi” deb nom oldi shubhasiz bu bejizga emas xulosa qilib aytish joizki yangilangan Konstitutsiya zamirida bir qator hayotiy mezonlar turibdi avvalo milliy strategik rivojlanishimiz, tinch osoyishta hayot , qudratli davlat asosi sifatida etirof etilayotgan ushbu hujjat xalqimiz takliflari asosida shakllantirildi . Yangi Konstitutsiya - xalq dardiga quloq soluvchi davlat asosi bo‘la oladi desak mubolag'a bo‘lmaydi .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Konstitutsiyam - qomusim telegram kanal t.me.Ref- 2023
2. Òzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Òzbekiston Respublikasi Prezidentining "Òzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bòyicha Harakatlar strategiyasi tòg'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 07.02.2017. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Òzbekiston Respublikasining "Ta'lim tòg'risida"gi Qonuni. [www.lex.u](http://www.lex.u)